

**O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHDA
KICHIK BIZNESNING O'RNI**

**THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE
INDUSTRY IN UZBEKISTAN**

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi, o'qituvchisi
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li*

*University of Business and Science non-state higher educational institution, teacher
Abduganiyev Murodjon Shavkat ogli*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda sanoat tarmog'ini rivojlanirishda kichik biznesni o'rni, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: aloqa, tadbirkorlik, biznes, atrof-muhit, investisiya, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investisiyalar, investisiya tizimi.

Аннотация. В статье рассматривается роль малого бизнеса в развитии промышленного сектора Узбекистана, в частности, такие вопросы, как совершенствование системы государственного управления в отрасли, широкое внедрение рыночных отношений, широкое внедрение информационно - коммуникационных технологий, а также эффективное использование достижений науки.

Ключевые слова: коммуникация, предпринимательство, бизнес, окружающая среда, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

Abstract. The article examines the role of small business in the development of the industrial sector of Uzbekistan, in particular, such issues as improving the public administration system in the industry, the widespread introduction of

market relations, the widespread introduction of information and communication technologies, as well as the effective use of scientific achievements.

Keywords: *communication entrepreneurship, business, environment, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.*

Kirish.

Bugungi kunda sanoat tarmog‘i jahon iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan yetakchi tarmoqlardan hisoblanadi. Mazkur tarmoqning o‘z salohiyatini namoyon etishida kichik biznes korxonalarining imkoniyatlaridan foydalanish ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Zero, kichik biznesning iqtisodiyotning harakatchanligi va moslashuvchanligini ta’minalash, undagi raqobat muhitini kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, sanoat kooperatsiyalari orqali yirik korxonalar samaradorligini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalaridan sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishda foydalani sh tarmoqning faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shunga ko‘ra, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda kichik sanoat korxonalarining faoliyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Butun jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida qayta ishslash sanoati tarmoqlari va aholining qishloq xo‘jaligi xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondiruvchi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ahamiyati oshib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “bugungi kunda jahon qishloq xo‘jaligi iqtisodiy faol aholining 1 mld. kishidan ziyodini bandligini ta’minlamoqda, shuningdek jahonda ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning 5 foiziga yaqini mazkur tarmoq hissasiga to‘g‘ri keladi. Prognoz ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2050 yilga borib, jahon aholisi 9,1 mld. kishiga yetishi mumkin. Bu holatda jahon aholisining go‘sht va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabi hozirgi kunga nisbatan 2,5-3,0 barobarga ortishi kutilmoqda”[1].

Dunyoda tovarlar bozori infratuzilmasi o‘zgarishi, chakana va ulgurji savdoning zamonaviy ko‘rinishlari paydo bo‘lishi, korxonalarining raqobat va iste’molchi uchun kurashdagi innovatsion faolligi hamda ularning maqsad,

manfaat, funksiya va jarayonlaridagi farqlar zamonaviy savdo marketingida sezilarli o‘zgarishlarni talab etadi. Savdo marketingining asosiy ob’ektlari hisoblangan ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar, ulgurji va chakana savdo korxonalari o‘rtasidagi biznes munosabatlariga asoslangan uzoq muddatli hamda o‘zaro manfaatli hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish masalalari ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda.

Respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlari savdo-logistika, sotish va saqlash jarayonlarini muvofiqlashtirish, biznes yuritishda samarali marketing strategiyalaridan foydalanish asosida iqtisodiy o‘sishga erishishga qaratilgan yo‘nalishlarga alohida e’tibor berilmoqda [2].

O‘zbekistonda agrar sektor sohasi aholining oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabini ta’minlash bilan birga, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, o‘tgan yillar davomida sohaga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini rag‘batlantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Tahlil va natijalar.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosan paxta va g‘alla ekinlari uchun ixtisoslashganligi sababli, yuqorida keltirilgan jadval ma‘lumotlarida don va dukkakli don ekinlari tarkibida g‘alla judda katta ulushga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi o‘rinlarda makkajo‘xori doni, sholi va boshqa turdagи dukkakli ekin (no‘xat, loviya, yasniq)larni yetakchilik qilib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ayni paytda jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarida fermer xo‘jaliklarining ulushi 53,1 foizni, jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarida esa 5,3 foizni tashkil etmoqda.

1-jadval.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlar, ming tonnada[6].

Mahsulot turi	2015 y	2020 y	2021 y
Don va dukkakli ekinlar	8 173,5	7 636,0	7 634,6
Kartoshka	2 586,8	3 143,8	3 285,6
Sabzavotlar – jami	9 390,0	10 431,4	10 850,2

Oziqbop poliz	1 853,6	2 134,4	2 285,3
Mevalar va rezavorlar	2 467,9	2 812,6	2 852,6
Uzum	1 518,2	1 606,9	1 695,3
So‘yish uchun mol va parranda (tirik vaznda)	2 033,4	2 519,6	2 635,1
Sut	9 027,8	10 976,9	11 274,2
Olingan tuxum	5 535,4	7 781,2	7 788,4
Asal, tonna	10 157,0	13 357,8	14 066,9
Qirqib olingan jun, tonna	36 029	35 422	36 345
Olingan qorako‘l terilar	1 032,0	1 152,1	1 252,4
Pilla, tonna	26 293,0	20 941,9	22 769,9

Yuqoridagi 1-jadvalda ko`radigan bo`lsak qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning statistik ma`lumotlari bo`lib ushbu mahsulotlarni etishtirishda xamda ularni qayta ishlash jarayonlarida sanoat sohalarini ahamiyati kattadir. Jadvalda don va dukkakli ekinlar 2015 yili 8173,5 ming tonna, 2021 yili esa 7634,6 ming tonna maxsulot etishtirilgan. Kartoshka 2015 yili 2586,8 ming tonna, 2021 yili 3285,6 ming tonna etishtirilgan. Sabzavotlar esa 2015 yil 9390,0 ming tonna, 2021 yili 10850,2 ming tonna etishtirilgan. Shuningdek, 2015 yili 26293,0 ming tonna pilla olingan bo`lsa 2021 yili esa 22769,9 ming tonna pilla olingan. Ushbu olingan va etishtirilgan maxsulotlarni qayta ishlashda tadbirkorlarning o`rniga ular sanoat sohalari faoliyatini rivojlanishida beqiyosligidir. Bundan tashqari tadbirkorlar barcha sanoat sohalarni rivojlantirmoqda.

Olingan statistik ma`lumotlarda tashqi savdo aylanmasidagi meva-sabzavot mahsulotlari eksportida asosiy hamkor davlatlar Rossiya (umumiyligi hajmdan 30,5%), Qozog‘iston (20,5%), Afg‘oniston (6,6%), Xitoy (5,7%), Turkiya (4,5%) va Qirg‘iziston (4,3%) hisoblanadi. Daniya, Yamayka, Amerika samoasi va Janubiy Afrika davlatlariga birinchi marotaba 2021 yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Shuningdek, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti turlari va geografiyasi yildan yilga kengayib bormoqda. Bolgariya, Shri-Lanka, Indoneziya, Filipin, Gresiya, Qatar, Xorvatiya va Malta davlatlariga birinchi marotaba 2021 yilda meva-sabzavot mahsulotlari va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar eksporti amalga oshirildi[6].

Bizga ma'lumki, xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalg qilish va xorijiy sarmoyalalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratib berilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishni ifodalovchi mazkur jarayon, yangi mahsulotlar va xizmatlar uchun g'oyalarni izlash, eng istiqbolli g'oyalarni oldindan tanlash, investorlarni izlash, yangi mahsulot yoki xizmatlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Maqsadli bozor talablarini qondirishning potensial imkoniyatlari va yangi texnologik imkoniyatlar o'rtaсидаги integrasion aloqadorlik innovatsion ishlanmalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirishga barcha bosqichlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Ayni vaqtida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratinini yuzaga keltiradi.

Asosan, sanoat sohalarini rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosan soliq imtiyozlarini o'rni muhim bo'lmoqda. Tadbirkorlik subyektlari uchun har bosqichda soliqqa tortish va soliq ma'murchilagini yengillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan mexanizmlar belgilandi. 2023-yil 1 yanvardan boshlab: -mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi [6].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida tadbirkorlikning rolini oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xorijiy investitsiyalarni kiritish bo'yicha xorijiy firma va agroklasterlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan texnologiyalarni olib kelish, respublikada tashkil etilayotgan xalqaro

yarmarkalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

-qishloq ho‘jaligi korxonalariga o‘z mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni sotib olishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalanishga ko‘maklashish choralarini ko‘rish;

-qishloq joylarida tashkil etiladigan sanoat korxonalarini xom ashyo, elektr energiyasi, gaz bilan uzlucksiz ta’minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarni qurishni amalga oshirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihamonlari moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-son Qarori.

3. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – C. 129-133.

4. Aripov O.A.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 2, mart-aprel, 2019-yil

5. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

6. www.stat.uz sayti ma’lumotlari.